

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№ 4
maxsus son

2025
IYUL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
72 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Nostandart bandlikning asosiy shakllari: ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida	10
Zuxra Abdikarimova, Saida Eshchanova	
“Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O‘zbekiston modeli”	16
Tojiliyev Sherdorbek Elmurod o‘g‘li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o‘g‘li	
Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasini yaxshilash va hududiy raqobatbardoshlikni ta’minlashning yarim zamonaviy yo‘nalishlari	20
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Sekinlashayotgan iqtisodiyot fonida Yaponiya va Xitoy o‘rtasidagi sanoat raqobati: sifat va nusxaning to‘qnashuvi	24
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
O‘zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida)	31
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o‘g‘li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich	
Yashil rivojlanish va raqamli islohotlar integratsiyasi: O‘zbekiston misolida tahlil	35
Baymuradova Zilola Alisherovna, Izbosarov Boburjon Baxriddinovich	
Industrial waste and global climate: pathways to a green economy transition	42
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi, Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining iqtisodiyotga ta’siri va ular orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish	47
Allanazarov Ravshan Shavkat o‘g‘li, Samadqulov Muhammadjon	
Raqamli iqtisodiyotning turli tarmoqlarda qo‘llanilishi va sanoat korxonalarini raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish	52
Allanazarov Ravshan Shavkat o‘g‘li, Samadqulov Muhammadjon	
Raqamli marketing: Ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar e’tiborini jalb qilish	57
Qodirov Sardor Qosimjonovich	
Структура фирм и организация управления логистикой	61
Исломжон Жамшедович Жамшедов, Фарход Махмудович Тиркашев	
Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan hamkor davlatlar va ularning subyektlari o‘rtasida moliyaviy munosabatlarni rivojlanishiga ta’siri	66
Abdilxatov Ulug‘bek Abdulquddus o‘g‘li, Bazarova Gulnora Gulamovna	



SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI BILAN HAMKOR DAVLATLAR VA ULARNING SUBYEKTLARI O'RTASIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Abdilxatov Ulug'bek Abdulquddus o'g'li

Andijon davlat texnika instituti, iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 3-bosqich talabasi.
E-mail: abdulhatovulugbek@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Bazarova Gulnora Gulamovna

Andijon davlat texnika instituti dotsenti, ifn.
E-mail: bazarova180660@gamil.com

Annotatsiya: Shanxay hamkorlik tashkiloti iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda davlatlar urtasidagi savdo va logistika hamkorligini kengaytirish bilan birga Evropa va Osiyo davlatlari o'rtasidagi xalqaro aloqalarni mustahkamlash eng ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shuningdek, ShHTga a'zo davlatlarning salohiyatini yanada kengaytirish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Shanxay beshligi, memorandum, tovar ayirboshlash, tashqi savdo hajmi, MATT, hamkor davlatlar.

Abstract: The Shanghai Cooperation Organization (SCO) has set as its top priority the task of strengthening international relations between European and Asian countries, while ensuring economic cooperation and regional security, expanding trade and logistics cooperation between states. It is also envisaged to further expand the potential of the SCO member states.

Keywords: Shanghai Five, memorandum, trade turnover, foreign trade volume, MATT, partner countries.

Аннотация: Шанхайская организация сотрудничества (ШОС) ставит своей важнейшей задачей укрепление международных отношений между странами Европы и Азии, обеспечение экономического взаимодействия и региональной безопасности, расширение торгово-логистического взаимодействия между государствами. Также предусматривается дальнейшее расширение потенциала государств-членов ШОС.

Ключевые слова: Шанхайская пятёрка, меморандум, товарооборот, объём внешней торговли, MATT, страны-партнёры.

KIRISH

Shanxay hamkorlik tashkiloti iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlab beruvchi tashkilot bo'lib, 15-iyun 2001-yil Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat yani Qirg'iziston, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Tojikiston hamda O'zbekiston davlat prezidentlari uchrashuvida tashkil topgan. Shuni takidlash joiski Shanxay hamkorlik tashkiloti 2021-yilga kelib 8 doimiy a'zo davlatni, 4 kuzatuvchi va 9 muloqot bo'yicha 9 sherik davlatlarni o'z ichiga olgan.

Shanxay hamkorlik tashkilotining Memorandumi 2002-yil 7-iyunda imzolangan. Ushbu memorandum imzolanishdan asosiy maqsad, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo-davlatlar ortasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlash ko'zda tutilgan. Shanxay hamkorlik tashkilotiga yangi a'zolarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom 2010-yil 11-iyunda imzolangan bo'lib ushbu nizomga ko'ra asosiy 7 ta moddani o'z ichiga olgan. Jumladan: Memorandum maqomi, umumiy majburiyatlari, xalqaro shartnomalarga qo'shilishi, ShHTga kirishning moliyaviy jihatlari, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organlarida kvotali lavozimlarga joylashtirish, Memorandum amal qilishini to'xtatib turish va tugatish hamda yakuniy qoidalar belgilanib o'tilgan.[1] 2004-yil 1-yanvarda Mintaqaviy Aksilterror Tuzulmasi (MATT)ning bosh binosi Toshkent shahrida tashkil topgan. Mazkur tuzilma zimmasiga, tashkilotlar o'rtasidagi axborot ma'lumotlarini almashuvi, muhim xizmatlarning hamkorligini takomillashtirish, bojxona qomitasini va chegara bo'yicha har qanday masalalarni muvofiqlashtirishni maqsad



qilingan. SHHTning nufuzini oshirishda o'z faoliyatini mazkur xalqaro tashkilot bilan birga olib borayotgan 26 mamlakat ichida O'zbekistonning ham munosib o'rni egallashga erishilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R.Alimov[2] o'z ilmiy ishida Shanxay hamkorlik tashkilotining Yevroosiyo mintaqasidagi o'rni va iqtisodiy hamkorlikdagi rolini chuqur tahlil qiladi. Muallif xavfsizlikdan tashqari, moliyaviy va iqtisodiy aloqalarning ham kengayib borayotganini ta'kidlab, SCO doirasida kreditlash va infratuzilma loyihalarining o'sishi bilan milliy valyutalarda hisob-kitoblarning kuchayishini ko'rsatadi. Shu orqali tashkilot mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va moliyaviy hamkorlikning muhim mexanizmi sifatida baholanadi.

T.Ambrosio[3] tadqiqotida SCOning normativ bazasi va siyosiy hamkorlik mexanizmlarini o'rganib, ular moliyaviy integratsiya imkoniyatlariga qanday ta'sir qilishini yoritadi. Unga ko'ra, tashkilot suverenitet va davlatlararo muvozanatga urg'u berishi sababli umumiy moliyaviy institutlar yaratishda cheklovlar yuzaga keladi. Shu bilan birga, Xitoy va Rossiyaning iqtisodiy manfaatlarini raqobati SCO moliyaviy hamkorligining shakllanishida muhim omil bo'lib, regional moliyaviy tizimning siyosiy rang-barangligini ko'rsatadi.

X.Xie[4] tomonidan yozilgan tadqiqot AIIB orqali SCO davlatlariga berilayotgan moliyaviy yordamning mintaqaviy ta'sirini tahlil qiladi. Muallif infratuzilma loyihalari va kredit liniyalari SCO mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashini, biroq ular moliyaviy qaramlik xavfini ham kuchaytirishini qayd etadi. Tadqiqotda kredit shartlari va qarz tuzilmalari tahlil qilinib, Xitoyning moliyaviy ta'sirini kengaytirish mexanizmlari sifatida baholangan.

Ilmiy tahlillarda SCO[5]ning Interbank Consortium va milliy valyutalarda hisob-kitob mexanizmlari ko'rib chiqilib, ularning imkoniyatlari va cheklovlari baholangan. Tadqiqotchilar bu institutlar orqali kredit risklarini kamaytirish, savdoni moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb qilish maqsad qilinishini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, mustaqil moliyaviy institutlarning yetishmasligi, regulyator tizimning nomukammalligi hamda siyosiy risklar integratsiya jarayoniga salbiy ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

So'nggi ilmiy maqolalar SCO[6] doirasida milliy valyutalarda hisob-kitoblarni kengaytirish va de-dollarlashish jarayonlarini muhokama qiladi. Mualliflar bu tashabbuslar tranzaksion xarajatlarni kamaytirib, sanksiyalar ta'sirini yumshatib, moliyaviy mustaqillikni kuchaytirishini ta'kidlashadi. Shu bilan birga, valyuta likvidligi, konvertatsiya muammolari va ishonch infrastrukturasi yetishmasligi asosiy cheklov sifatida qayd etiladi. SCO rivojlanish banki va qo'shma obligatsiyalar kabi yangi mexanizmlar taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni aytib o'tish joizki, Prezidentning 2018-yil 27-iyulda "O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi markazi tashkil etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorda quyidagilar markazning asosiy vazifasi etib belgilangan:

- SHHT mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilikni, millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlashga, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirishga ko'maklashish;


- SHHT mamlakatlari bilan madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishda, delegatsiyalarning o'zaro tashriflarini uyushtirishda ishtirok etish;

- SHHT mamlakatlarining fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari o'rtasida do'stona hamkorlik muhitini qaror toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- SHHT mamlakatlari o'rtasida axborot sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, axborot resurslarini shakllantirish hamda SHHTning maqsadlari, vazifalari, faoliyatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplarini keng tushuntirish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, SHHT mamlakatlarining madaniy-gumanitar sohada erishgan yutuqlari to'g'risida axborot-tahliliy materiallar tayyorlash va ularni muntazam chop etib borish;

SHHT a'zo mamlakatlarni eng asosiy ustivor vazifalardan yana biri, bu tabiiy suv energetika zaxiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid va boshqa masalalar hamda transport infratuzilmasini rivojlantirish belgilab o'tilgan. Ushbu jarayonlarga yaqqol misol tariqasida SHHT va O'zbekiston mamlakatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2021-yil yakuniga kelib 21 mlrd. dollardan oshdi, bu umumiy tashqi savdo hajmining 50%ini tashkil etdi. Buning natijasida keyingi yilning birinchi yarmiga kelib tovar ayirboshlash hajmi yana 30%ga oshishiga sabab bo'lgan va bu ko'rsatkich 12 mlrd. AQSH dollari tashkil etgan.


Agarda biz ShHT mamlakatlari bilan O'zbekistonni so'nggi 5 yildagi savdo aylanmasini tahlil qilib ko'rganimizda 1,7 barobar, import 2 barobar, eksport esa 1,2 barobarga ortishi kuzatilgan. (1-jadval) Shuningdek, mamlakatning umumiy tashqi savdo aylanmasi ShHT mamlakatlari bilan tovar aylanmasidagi ulushi 47,2% dan 50,2% ga ko'tarilgan ya'ni umumiy ko'rsatkich 3% ga o'sishiga erishilgan (1-rasm).



1-rasm. ShHTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasining savdo aylanmasi(mlrd AQSh dollar).

ShHTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan yurtimizning savdo aylanmasi 2017-yilda 12.7 mlrd AQSh dollari tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 21.2 mlrd ni tashkil qildi. Bundan tahlil qilib aytishimiz mumkinki, Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan bo'lgan munosabati yildan-yilga kuchayib borgan. Shuningdek, eksport hajmini eng yuqori darajasi 2019-yilda 7.6 mlrd dollari tashkil qilgan. O'zbekiston ushbu tashkilot bilan uzliksiz juda ko'p tovar va mahsulotlarni eksport va import qilganligi sababli bu ko'rsatkichlar tobora oshib borgan va 2021-yilga kelib import ko'rsatkichi 2017-yilga nisbatan 49.6% ga o'sishiga erishilgan, eksport hajmi esa 2.6 mlrd dollar miqdorida o'rtishiga erishilgan.

Shanxay hamkorlik tashkilotini eng yirik iqtisodiy aloqalarini amalga oshiruvchi davlatlarni ko'rib chiqqanimizda, savdo aylanmasining eksportdagi ulushi 60% dan yuqori bo'lgan Rossiya va Xitoy mamlakatlarida ko'rsatilgan (2-rasm).



2-rasm. ShHT mamlakatlari ichidagi savdo hajmi bo'yicha yirik davlatlarining eng katta ko'rsatkichi.




Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar butun jahon iqtisodiyotining tez suratlarda o'sishi natijasida O'zbekistonning iqtisodiy hamkorligini tobora rivojlantirishga olib kelmoqda. Shuni alohida takidlab utishimiz joizki, Samarqand shahrida ShHTning tashkil etilgan sammiti, mintaqadagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni keskin o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yani ushbu sammitda, ShHTga a'zo bo'lgan davlatlar jahon miqyosidagi eng dolzarb masalalarni muhokama qilishga imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan 2017—2023—yillar oralig'ida eksport va import qilingan tovarlar guruhini statistik ko'rsatkichlarga etibor bersak. (3-jadval) Bunda mamlakatimizning eng asosiy savdo hamkorlari Xitoy va Rossiya davlatlari bo'lganligini va har bir yilning eng top eksport va import qilingan tovarlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun: 2017—2024-yillarda qimmatbaho metallarning eksport hajmi kamayishi va ortishi kuzatilmagan bo'lib, ammo import hajmi ushbu yillarda 42.8% ga o'sgan. Shuningdek, mis, minerallar va moy mahsulotlarini eksport hajmi yildan yilga ortishi kuzatilgan, shu bilan birga ushbu mahsulotlarni import hajmi ham o'sib borgan (1-jadval).

1-jadval

Yil	Tovar guruhi	Eksport hajmi (mln. \$)	Import hajmi (mln. \$)	Asosiy savdo hamkorlari
2017	qimmatbaho metallar	3,5	1,2	Xitoy, Rossiya
2018	minerallar va moy mahsulotlari	2,8	1,5	Xitoy, Rossiya
2019	mis va mis mahsulotlari	2,6	1,7	Xitoy, Rossiya
2020	to'qimachilik mahsulotlari	1,9	1,8	Xitoy, Rossiya
2021	paxta	2,2	2	Xitoy, Rossiya
2022	minerallar va moy mahsulotlari	3	2,2	Xitoy, Rossiya
2023	mis va mis mahsulotlari	3,1	2,5	Xitoy, Rossiya
2024	qimmatbaho metallar	3,5	2,8	Xitoy, Rossiya



3-rasm. O'zbekiston va SHHT davlatlari o'rtasidagi tovar almashinuvi (2017–2024).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohatlar natijasida; yurtimiz iqtisodiyoti barqarorlashib, eksport va import hajmi tobora rivojlanib bormoqda. Bu islohatlar doirasida eksport imkoniyatlarini to'liq ishga solish, mahalliy lashtirishni kengaytirish hamda eksportchi korxonalarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan halqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash orqali tovar va xizmatlar assortimentlarini yanada kengayishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek yangi tadbirkorlar



vujudga kelishi natijasida mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga zamin yaratiladi. ShHT a'zolari o'rtasidagi moliyaviy resurslarni kengaytirish orqali O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini ortishiga olib keladi. Kelajakda O'zbekiston ShHT doirasida sanoat korxonalarining rivojlanishi uchun turli tashabbuslarni ilgari surishni rejalashtirmoqda. Ushbu dastur ishlab chiqarish quvvatlarining samarali ishga solinishi natijasida iqtisodiyotni tubdan o'zgarishiga olib kelib, mamlakatimizdagi kichik va o'rta biznes subyektlarida yangi ish o'rinlari yaratilishiga, shuningdek, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va hamkor davlatlar va ularning subyektlari o'rtasida moliyaviy munosabatlarni rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Memorandumi [<https://lex.uz/uz/docs/-6866909>]
2. Alimov, R. (2018). The Shanghai Cooperation Organisation: Its role and place in the development of Eurasia. *Journal of Eurasian Studies*, 9(2), 114–124.
3. Ambrosio, T. (2008). Catching the "Shanghai spirit": How the Shanghai Cooperation Organization Promotes Authoritarian Norms in Central Asia. *Europe-Asia Studies*, 60(7), 1321–1344.
4. Xie, X. (2025). Is the Asian Infrastructure Investment Bank's assistance to SCO member states revisionist or status-quo? (Accepted manuscript, peer-reviewed).
5. Research articles on SCO Interbank Consortium and regional financial integration (2018). See ResearchGate collection on "Financial Mechanisms of the SCO: Risks and Development Prospects".
6. Academic and policy analyses (2024–2025) on SCO national currency settlements and de-dollarization.
7. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti xalq diplomatiyasi markazi ta'sischilarining yig'ilishi, [<https://old.gov.uz/oz/news/view/17744>]
8. ShHT sammiti 2022-yil 15-16-sentabr [<https://sco-summit2022.uz/uz-Latn/newsDetail/141>]
9. Nazarova, F. (2024). O'zbekistonning shanxay hamkorlik tashkilotidagi mintaqaviy vositachilik ro'li va ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (3), 56-72. 2.
10. Musayeva, J. K. (2023). O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda aktivlarni boshqarishning o'rni va roli. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (4), 554-564

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

4-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100